

1946-1991-YILLARDA O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING IJTIMOY-IQTISODIY TASIRI.

Qo'ldoshev Vohidjon Mirzoxidjon o'g'li

*Yangiyo'l agrotexnologiyalar texnikumi tarix fani o'qituvchisi
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-kurs Magistr talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada 1946–1991-yillar oralig'ida O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri tahlil qilingan. SSSR davrida sanoatlashtirish va shaharsozlik siyosati tufayli Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Buxoro kabi yirik shaharlar tez sur'atlarda rivojlandi. Urbanizatsiya natijasida sanoat korxonalari, transport va uy-joy infratuzilmasi kengaydi, shaharlar aholisi soni ortdi, ijtimoiy va madaniy sohalarida sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Shu bilan birga, tezkor urbanizatsiya ekologik muammolarni, xususan, Orol dengizi fojiasini chuqurlashtirdi, qishloq hududlarida iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirdi va shahar kommunal tizimlarida yuklamani oshirdi. Maqola tarixiy manbalar, statistik ma'lumotlar va ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, urbanizatsiyaning O'zbekiston jamiyatidagi modernizatsiya jarayonlariga qo'shgan hissasini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *Urbanizatsiya, O'zbekiston tarixi, SSSR davri, sanoatlashtirish, shaharsozlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, Orol dengizi, migratsiya, infratuzilma, demografik o'zgarishlar.*

Ma'lumki, shaharlar siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlar bo'lishi bilan birga mamlakat xo'jaligi va shahar hayoti rivojlanish darajasini aks ettiradi. Urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi, shaharlarning o'sishi va shahar aholi punktlarining shakllanishi tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish natijasidir. Mustaqillik yillarida respublikada urbanizatsiyaning rivojlanish xususiyatlari siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar ta'sirida kechdi va bu jarayonlar shaharlarning o'sishi, shahar aholisi ulushi, shaharlarning funksional tiplari va ularni kattaligiga ko'ra tasniflashda o'z aksini topdi.

1946–1960-yillarda yirik sanoat korxonalari (masalan, Angren ko'mir konlari, Olmaliq rangli metallurgiya kombinati, Chirchiq kimyo zavodi) faoliyatini kengaytirdi. Paxtachilikni rivojlantirish bilan bir qatorda, O'zbekistonni SSSRning sanoat bazasiga aylantirish maqsadida Navoiy, Zarafshon, Yangiyer, Uchquduq, Muborak kabi shaharlar tashkil topdi. Bu jarayonlar urbanizatsiya sur'atini oshirdi: 1959-yilda shahar aholisi 28,2 % ni, 1979-yilda esa 41,4 % ni tashkil etdi [1].

Urbanizatsiyaning muhim omillaridan biri ichki va tashqi migratsiya bo'ldi. SSSRning turli hududlaridan — Rossiya, Ukraina, Belorussiya va boshqa respublikalardan malakali ishchi kuchi O'zbekistonga ko'chirildi. Bu jarayon shaharlarning milliy tarkibini o'zgartirdi. Masalan, 1959–1970-yillarda rus va tatar aholisi shaharlarda 40 % dan ortiq ulushga ega bo'ldi, bu esa sanoat korxonalarining samarali faoliyatini ta'minladi [2].

Shu bilan birga, ichki migratsiya natijasida qishloq aholisining sezilarli qismi shaharlarga ko'chib o'tdi. Bu nafaqat mehnat bozorini diversifikatsiya qildi, balki qishloq joylarida demografik bosimni kamaytirdi.

Urbanizatsiya madaniy va ta'lim sohalarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Shahar markazlarida yangi oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va madaniyat saroylari qurildi. Tibbiyot va ijtimoiy xizmatlar sifati oshdi. Biroq tez sur'atlarda urbanizatsiya uy-joy taqchilligi, kommunal xizmatlarning yuklamasi va ekologik muammolarni keltirib chiqardi. Masalan, 1970–1980-yillarda Toshkent va Farg'ona vodiysida ekologik bosim sezilarli darajada kuchaydi.

Sanoatning tez sur'atlarda rivojlanishi O'zbekistonning iqtisodiy ko'rsatkichlarini oshirdi. 1980-yillarga kelib, respublika SSSRning yirik rangli metallurgiya va neft-gaz markazlaridan biriga aylandi. Urbanizatsiya yangi ish o'rinlari yaratdi, ichki bozorni rivojlantirdi va transport-logistika tizimini kengaytirdi. Shu bilan birga, sovet rejalashtirish siyosati tufayli ayrim loyihalar maqsadga muvofiq bo'lmay, moliyaviy va ekologik yo'qotishlarga olib keldi.

Urbanizatsiya sovet davlati uchun ham nazorat vositasi bo'ldi: yangi shaharlar va sanoat markazlari orqali markaziy hokimiyatning iqtisodiy va madaniy siyosati singdirildi. Milliy tarkibdagi o'zgarishlar va shaharlarda ko'p millatli muhitning shakllanishi esa turli ijtimoiy munosabatlar va moslashuv jarayonlarini yuzaga keltirdi.

1946–1991-yillarda O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari sovet industrial siyosati, migratsiya oqimlari va demografik o'zgarishlar ta'sirida jadallashdi. Yangi shaharlarning tashkil topishi, sanoatning rivojlanishi va infratuzilmaning kengayishi iqtisodiy yuksalishga xizmat qildi. Shu bilan birga, uy-joy yetishmovchiligi, ekologik muammolar, migratsiya oqibatidagi ijtimoiy moslashuv muammolari urbanizatsiyaning murakkab tomonlarini ko'rsatdi. Bu davrda shakllangan shahar tarmoqlari mustaqillikdan keyingi urbanistik rivojlanishning asosiy tayanchiga aylandi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, demografik tarixni o'rganish va aholishunoslik masalalariga bo'lgan qiziqish keskin ortdi. Bu jarayon urbanizatsiyaning rivojlanishi bilan uzviy bog'liq edi. 1965–1971-yillar oralig'ida turli miqyosdagi 12 ta ilmiy konferensiya o'tkazilib, aholi tarkibi, shahar va qishloq aholisining o'sishi hamda mintaqaviy joylashuvi masalalari muhokama qilindi [2].

1960–1970-yillarda dunyo aholisi va O'zbekistonning demografik holati haqida ko'plab maqolalar nashr etildi [3]. Ularda respublikada yangi shaharlar vujudga kelishi va ularning urbanizatsiya jarayonlariga ta'siri yoritib berilgan. O'zbekiston aholishunosligida iqtisodchi va geograf olimlarning katta hissasi bo'lib, ular urbanizatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatlarini chuqur tahlil qildilar.

Mustaqillik yillarida nashr etilgan asarlarda esa O'zbekiston aholisining milliy tarkibi va sovet davridagi milliy siyosat yangicha nuqtai nazardan baholandi [4]. Lekin o'sha yillarda urbanizatsiya jarayonlarini to'liq qamrab olgan alohida tadqiqot mavjud

emas edi [5]. Bu adabiyotlar ko'proq statistik ma'lumotlarga asoslanib, demografik o'zgarishlarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyat bilan bog'lab o'rgandi [6].

Ikkinchi jahon urushi yillarida va undan keyingi davrda sovet hukumati ma'muriy-buyruqbozlik siyosati asosida mamlakatning barcha sohalarini boshqardi. O'zbekiston sotsialistik xalq xo'jaligi tizimiga qat'iy bog'lab qo'yildi va respublika manfaatlari ko'p hollarda inobatga olinmadi. Urushdan keyingi iqtisodiy dasturlarda sanoat ishlab chiqarishini uch baravar oshirish va xom ashyo bazasini mustahkamlash rejalashtirildi. Bu siyosat asosan paxta yetishtirishni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, ko'plab yangi shahar va sanoat markazlarining paydo bo'lishiga turtki berdi.

O'zbekistondagi sug'orishga yaroqli 2,5 mln gektar yerga aholini ko'chirish ishlari amalga oshirildi [7]. Majburiy ko'chirishlar orqali yangi qishloqlar va shaharchalar barpo etildi. Bu jarayon urbanizatsiya sur'atlarini tezlashtirdi, lekin ko'chirib kelingan aholi uchun uy-joy va infratuzilma yetarlicha ta'minlanmaganligi sababli 19,2 % oila qayta o'z hududlariga qaytib ketdi [11][13].

Ko'chirish ishlari uchun katta mablag'lar ajratilgan bo'lsa-da, ularning bir qismi boshqa maqsadlarda ishlatilgan [12]. Shu bois urbanizatsiya jarayonlari ko'pincha rejali va samarali emas, balki ma'muriy bosim ostida kechgan.

1940-yillar oxiri va 1950-yillarda tatar, yahudiy, koreys, ozarbayjon, boshqird, ukrain va boshqa millat vakillarining soni keskin oshdi [15]. Bu ko'p millatlilik urbanizatsiya jarayonlarida ham o'z aksini topdi: Yevropa millatlari asosan shaharlarga joylashib, shahar infratuzilmasi va sanoat rivojiga hissa qo'shdilar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1939–1959-yillarda o'zbeklar umumiy aholidagi ulushi 2,8 % ga kamayib, 62,2 % ni tashkil etdi [16]. Bu kamayish shaharlarda rus, tatar va boshqa yevropa millatlari sonining o'sishi bilan bog'liq edi. Masalan, ruslar soni 0,5 mln dan 0,9 mln kishigacha, tatarlar esa 0,1 mln dan 0,3 mln kishigacha ko'paydi. Shu bilan birga, o'zbeklar, qozoqlar va tojiklar soni ham ortib bordi. Bu ko'rsatkichlar shahar va qishloq aholisi tarkibida urbanizatsiyaning ta'sirini yaqqol namoyon etadi.

1959–1970-yillarda o'zbeklarning umumiy soni taxminan 2,7 mln kishiga oshib, respublika aholisidagi salmog'i 65,5 % ga yetdi. Bu o'zgarishlar shahar aholisining o'sishi, yangi sanoat shaharlarining tashkil topishi va migratsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq edi.

Sanoat korxonalarining qurilishi nafaqat iqtisodiy o'sishni tezlashtirdi, balki shaharsozlik va transport infratuzilmasida ham tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Toshkent metrosining 1977-yilda ishga tushirilishi shahar transport tizimi rivojlanishining muhim belgisi bo'ldi. Bu davrda qurilish materiallari ishlab chiqarish, energetika va mashinasozlik tarmoqlari rivojlandi. Shu bilan birga, uy-joy qurilishi keng ko'lamda olib borildi: ko'p qavatli turar-joy massivlari (masalan, Chilonzor va Yunusobod) paydo bo'lib, shaharlardagi yashash sharoitlari ancha yaxshilandi.

Urbanizatsiya jarayonlari ijtimoiy hayotga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Shaharlarda sog'liqni saqlash muassasalari, oliy ta'lim dargohlari va madaniy markazlar ko'paydi.

Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O'zMU) va Toshkent Politexnika Instituti yangi mutaxassislarni tayyorlashda muhim o'rin egalladi. Shu bilan birga, shahar hayotining tezlashishi, qishloqdan kelgan aholi uchun moslashuv muammolarini ham yuzaga chiqardi. Migratsiya oqibatida yangi ijtimoiy guruhlar shakllandi, bu esa shaharlarda milliy va madaniy rang-baranglikni oshirdi.

Urbanizatsiya jarayonlari ko'pincha qishloq xo'jaligi va ekologik muammolar bilan bog'liq edi. Shaharlarning kengayishi sug'oriladigan yerlarning qisqarishiga olib keldi. Ayniqsa, paxtachilikning kengayishi va sanoatlashtirish Orol dengizi fojiasiga zamin yaratdi. 1970–1980-yillarda Orol dengiziga quyiladigan suv hajmining kamayishi bilan birga, shaharlarning ichimlik suvi ta'minotida ham muammolar paydo bo'ldi.

Sanoatlashtirish va urbanizatsiya O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirdi, ish o'rinlari yaratdi va ichki bozorni kengaytirdi. Toshkent, Farg'ona vodiysi shaharlari va Navoiy kabi sanoat markazlarining shakllanishi respublikaning yalpi ichki mahsulotida sanoatning ulushini oshirdi. Shu bilan birga, rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida resurslarning markazlashuvi ko'plab muammolarni yuzaga keltirdi: qishloq hududlarida iqtisodiy tengsizlik kuchaydi, shaharlar esa markaziy boshqaruvdan qattiq bog'liq bo'lib qoldi.

Urbanizatsiya jarayonlari natijasida madaniy hayotda ham o'zgarishlar yuz berdi. Shaharlarda teatrlar, kinoteatrlar, muzeylar va kutubxonalar soni oshdi. Shahar hayotining jozibadorligi tufayli yoshlar qishloqlardan shaharlar tomon ko'chib, demografik muvozanatni o'zgartirdi. Shu bilan birga, shahar aholisining tez o'sishi uy-joy tanqisligini va kommunal xizmatlar tizimidagi yuklamani oshirdi.

1946–1991-yillar oralig'ida O'zbekiston urbanizatsiya jarayonlari sobiq SSSRning umumiy iqtisodiy siyosati, sanoatni rivojlantirish va aholini joylashtirish strategiyalari bilan chambarchas bog'liq edi. Bu jarayonlar shaharlarning iqtisodiy va madaniy salohiyatini kuchaytirgan bo'lsa-da, ekologik, ijtimoiy va infratuzilma muammolarini ham yuzaga chiqardi. Urbanizatsiya respublika jamiyatining modernizatsiya yo'lidagi eng muhim omillardan biri sifatida tarixda muhim iz qoldirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Арипов, Ш. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари. — Тошкент: Фан, 1987. — 254 б.
2. Постников, В. Урбанизация и социальные процессы в Средней Азии. — Москва: Наука, 1989. — 301 с.
3. Мельникова Т.С. Формирование промышленных кадров в Узбекистане. — Т., 1956; Пулатов Г.П. Некоторые вопросы национальной политики в решениях XX и XXI съездов КПСС. — Т., 1961;
4. Мулладжанов И.Р. Народонаселение Узбекской ССР. — Т., 1967;
5. Агзамходжаев А. Образование и развитие Узбекской ССР. — Т., 1971;

6. Турсунов Х. Национальная политика Коммунистической партии. –Т.: Узбекистан, 1971; Салимов Х.С. Население Средней Азии. –Т.: Узбекистан, 1975;

7. Цамерян И.П. Нации и национальные отношения в развитом социалистическом обществе. –М.: Наука, 1979;

8. Абдуллаева Э.Н. Расцвет и сближение культур народов Средней Азии при развитом социализме и критика их буржуазных фальсификаторов. –Т.: Фан, 1981;